

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNI
AYRIM JIHATLARI

Abduhakimov.Ch.V

Ichki Ishlar Akademiyasi 3-bosqich kursanti

ANNOTATSIYA Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari hamda bu boradagi istiqbollar. "Jamoat tartibi", "Jamoat xavfsizligi" tushunchalariga berilgan ta'riflarning ilmiy tahlili, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish, faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirish. Maqolada jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining xorij tajribasi, bu boradagi zamonaviy ish usullari bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan. Kalit so'lar; ichki ishlar organlari, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini, fuqarolar ishtiroki, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash.

ABSTRACT Ensuring public order and security of law enforcement agencies, ongoing reforms in the field of combating crime and their results, as well as prospects in this area. Scientific analysis of the definitions of "public order", "public security", improvement of the legal framework for the participation of citizens in ensuring public order and security, the formation of an active citizenship. The article presents the foreign experience of citizens' participation in the protection of public order, proposals and recommendations on modern methods of work in this area.

Keywords: law enforcement, public order, public safety, citizen participation, maintenance of public order, ensuring public safety.

KIRISH. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq

manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda ichki ishlar organlarining faoliyatini kompleks takomillashtirishga qaratilgan bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalash faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Muhokama; Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minalash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqburzarliklar profilaktikasining yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF6196-son (2021 yil 26 mart) farmoni qabul qilindi.

Farmonga binoan ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalash faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida quyidagilar belgilandi:

birinchidan, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi. Unga muvofiq, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini

ta’minalash, huquqburzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar

organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi; ikkinchidan, Ichki

ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohaviy xizmatlari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbazarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi;

uchinchidan, hududiy ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyati tuzilmalari va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida, ayrim rahbarlik lavozimlarining tugatilishi hisobidan Qoraqalpog'siston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyatlar, tuman va shaharlar ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinnbosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimi joriy etildi va patrul-post hamda yo'l-patrul xizmati bo'linmalari faoliyatini, shuningdek, mahallalar va jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o'tkazilishini muvofiqlashtirish, muqaddam sudlangan va probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash hamda ichki ishlar organlarining tungi xizmatini tashkil etish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Shuningdek Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq yagona "poytaxt mintaqasi"

tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari mazkur Kengash raisining o'rinnbosarlari hisoblandi. Kengash yig'ilishlari har oyda kamida bir marotaba o'tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o'zaro hamkorlikda hal etish bo'yicha manzilli choralar aniqlanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi"da: jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya faoliyatini uyg'unlashtirish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o'tkazishga jalg qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining bирgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish; jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish; jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish; profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish kabilar muhim vazifalar sifatida keltirilda.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini o'rganar ekanmiz avvalo, "Jamoat tartibi" va "Jamoat xavfsizligi" tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushunishni talab qiladi.

Tadqiqotlardan ko'rish mumkinki "Jamoat tartibi" tushunchasiga biron bir normativ-

huquqiy hujjatlarda ta’rif keltirilmagan, bu esa o‘z-o‘zidan ushbu tushunchani turlicha talqin qilish va yondashishlarga olib keladi. Bu borada olib borilgan taddiqot ishlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, mazkur tushunchani ta’riflash turlicha ko‘rinishda bo‘lsada, biroq ko‘pchilik olimlar “jamoat tartibi – jamiyatda huquq-normalari va axloq qoidalari asosida o‘rnatilgan tartib bo‘lib, asosan jamoat joylarida yuzaga keladi va rivojlanib boradigan ijtimoiy munosabatlar” degan ta’rifga qo‘shilgan. Jamoat xavfsizligi jamoat tartibidan farqli ravishda amaldagi qonunchilikda ta’rif keltirilgan ya’ni, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minkaydi.

Nazarimizda fuqarolarning jamoat tartibini saqlashda ishtirok etishi davlat boshqaruvida ishtirok etishni amalga ta’minalash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib, uning negizida ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari, Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini hamda jamoat xavfsizligini ta’minalash ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklatildi;

ikkinchidan, Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalash sohaviy xizmatlari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbazarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi;

uchinchidan, hududiy ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalash faoliyati tuzilmalari va rahbar lavozimlarini maqbullashtirish orqali mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishni ta’minalash maqsadida, ayrim rahbarlik lavozimlarining tugatilishi

hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyatlar, tuman va shaharlar ichki ishlar organlari boshliqlarining o‘rnibosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i lavozimi joriy etildi va patrul-post hamda yo‘l-patrul xizmati bo‘linmalari faoliyatini, shuningdek, mahallalar va jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish, muqaddam sudlangan va probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishslash hamda ichki ishlar organlarining tungi xizmatini tashkil etish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Shuningdek Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatalayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son (2021 yil 2 aprel) qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari mazkur Kengash raisining o‘rnibosarlari hisoblandi. Kengash yig‘ilishlari har oyda kamida bir marotaba o‘tkazilishi hamda unda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o‘zaro hamkorlikda hal etish bo‘yicha manzilli choralar aniqlanishi belgilandi.

O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”da: jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga

solist, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya faoliyatini uyg'unlashtirish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o'tkazishga jalg qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish; jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish; jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish; profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish kabilar muhim vazifalar sifatida keltirilda.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini o'rghanar ekanmiz avvalo, "Jamoat tartibi" va "Jamoat xavfsizligi" tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushunishni talab qiladi.

Tadqiqotlardan ko'rish mumkinki "Jamoat tartibi" tushunchasiga biron bir normativ-huquqiy hujjatlarda ta'rif keltirilmagan, bu esa o'z-o'zidan ushbu tushunchani turlicha talqin qilish va yondashishlarga olib keladi. Bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur tushunchani ta'riflash turlicha ko'rinishda bo'lsada, biroq ko'pchilik olimlar "jamoat tartibi – jamiyatda huquq-normalari va axloq qoidalari asosida o'rnatilgan tartib bo'lib, asosan jamoat joylarida yuzaga keladi va rivojlanib boradigan ijtimoiy munosabatlar" degan ta'rifga qo'shilgan. Jamoat xavfsizligi jamoat tartibidan farqli ravishda amaldagi qonunchilikda ta'rif keltirilgan ya'ni, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirish doirasida jamoat tartibini

saqlashda fuqarolarning ishtiroki mexanizmini joriy etilishi, ko‘ngilochar ob’ektlarda sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish, jabrlanganlarga tezda yordam ko‘rsatish, fuqarolarning qonuni huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasi (Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Solemn Ceremony Dedicated to the 24th Anniversary of the Adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan) // Xalq so‘zi. – 2016. – 8 dek.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021 yil 29 noyabr) farmoni (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and measures for its implementation" (November 29, 2021)) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi” (Approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 29, 2021 "Strategy for the development of public safety in the Republic of Uzbekistan in 2022-2025") // <https://www.lex.uz/docs/5749291>.
4. Степанов А.В. Общественная безопасность: теоретико-правовой анализ // Вестник АНО ВПО «Прикамский социальный 30 институт» – №1(69) – 2015. С. (29-37) (Stepanov A.V. Public safety: theoretical and legal analysis // Bulletin of the ANO VPO "Prikamsk Social Institute" - No. 1 (69) - 2015. P. (29-37)).
5. Sharipov Sanjar Sobirovich. SCIENTIFIC ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE MANAGEMENT OF PATROL-POST SERVICES IN PUBLIC ORDER AND SECURITY SYSTEMS. Journal of Law Research. 2021, 6 vol., issue 5, pp. 81-88

6. Кайль Я.Я. Партиципация как важный фактор повышения эффективности и результативности публичного управления субъектом Российской Федерации / Я.Я. Кайль, В.С. Епинина // Региональная экономика: теория и практика. 2013. № 16. С. 30-38 (Kyle Y.Y. Participation as an important factor in improving the efficiency and effectiveness of public administration in a constituent entity of the Russian Federation / Y.Y. Keil, V.S. Yepinina // Regional Economics: Theory and Practice. 2013. No. 16. S. 30-38.).
7. Воронина Л.И., Патюков А.В. Участие граждан в охране общественного порядка: сравнительный анализ российского и зарубежного опыта (Voronina L.I., Patyukov A.V. Participation of citizens in the protection of public order: a comparative analysis of Russian and foreign experience) // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/77051/1/978-5-7996-2729-4_1_14.pdf.